

**INSON KAPITALINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna

*Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
NamDU mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasining mohiyati, unga oid ta’riflar, inson kapitaliga oid konsepsiya va yondashuvlar tahlil etilgan. Ayniqsa, inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish, uning ijodiy fazilatlari va qobiliyatlari, inson kapitaliga sarmoya kiritish masalasi va muammolariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Inson omili, kapital, inson kapitali, moddiylik, humans capital, klassik o‘sish, xalqlar boyligi, ta’lim, zamonaviy dunyo.

Jahonda inson kapitali insoniyatning va har bir davlatning taqdirini belgilaydigan asosiy mezoniga aylanmoqda. Zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi asosan insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Shu sababli inson kapitalini shakllantirish, uning ijodiy qibiliyatlariga, inson kapitaliga sarmoya kiritish va rivojlantirish muammosi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biridir. Shu sababli ham qayerda inson kapitali, uning ravnaqiga ko‘p e’tibor berilayotgan, shart-sharoit yaratilayotgan bo‘lsa, bugun o‘sha mamlakatning tez rivojlanayotgani va taraqqiyoti jadal ildamlayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, inson kapitali muammosi globallashayotgan va murakkab zamonaviy jamiyatning eng dolzarb hamda muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki inson kapitali inson fenomeni o‘rganadigan fundamental g‘oyalardan kelib chiqadi. Uning iqtisodiy, siyosiy, milliy va ma’naviy asoslarida uni takomillashtirish uchun muhim g‘oyalar mavjud. Albatta, jamiyat inson kapitalini shakllanishi, to‘planishi va boyishidan tobora ko‘proq manfaatdordir. Vaholanki, inson kapitali insonning tug‘ilishidan boshlanadi va uning hayoti davomida davom etadi. Shu sababli ham gumanitar fanlar va ijtimoiy falsafada bu jarayon tobora jamiyatning strategik muhim sohasi sifatida qaralmoqda.

Ma’lumki, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Finlandiya, Buyuk Britaniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda¹ inson kapitali asosiy boylik va eng qimmatli manbai, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezoni hisoblanadi.

Xususan, rivojlangan mamlakatlarda milliy boylikdagi inson kapitalining ulushi 80 foizgachani tashkil etadi. Shu jihatdan ham jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari

¹ Centre research civil society of University name Johns Hopkins (USA), Institute of Central Asia, European Union Institute for Security Studies (France), Institute of Academy for study modern international relations Europe and Asia (China), Osaka University (Japan), Civil Society Fund Friedrich Ebert, Berlin Civil Society Center (Germany).

inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga yangilanayotgan O'zbekistonda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish mexanizmlarini yaratish, inson qadrini ulug'lash va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Zero, "jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'naliishlari"² belgilanib va shu asosda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqilishi ham masalaning qanchalik dolzar ekanligini ko'rsatib beradi.

Inson kapitali tushunchasining falsafiy jihatdan tahlil qilishda "inson" va "kapital" tushunchalarining mazmun-mohiyati, inson kapitaliga oid yondashuvlar xususida fikr yuritishimiz kerak bo'ladi. Darhaqiqat, inson kapitali (inglizcha "humans capital") zamonaviy fan, falsafa, siyosat v iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. U ikki so'z "inson" va "kapital"dan tashkil topgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, inson ong va aqlga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'r ganadi. Shuningdek, "inson olamdagи boshqa biologik mavjudotlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga, ya'ni aql, ma'naviyat, madaniyat, axloq, tafakkur, til va boshqa jihatlarga ega bo'lgan ijtimoiy vujud, odam zotini anglatuvchi tushunchadir".³

"Kapital" tushunchasi ilmiy lug'atlarda quyidagicha ta'riflanadi, ya'ni (lotincha capitalis – bosh, asosiy, hukmron) "ixtiyoriy ayriboshlash asosida iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish orqali ortiqcha qiymat olish uchun ishlatiladigan aktivlar majmui."⁴ hamda daromat keltirishi mumkin bo'lgan hamma narsa, "odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslardir".⁵ Shuningdek, o'zbek lug'atlarida kapital keng ma'noda "sarmoya o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar", tor ma'noda "yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko'paytiruvchi qiymat"⁶ sifatida qo'llaniladi. Albatta, kapital keng qamrovli tushuncha bo'lib asosan "moddiy boyliklar, pul zahirasi, ishlab chiqarishning moddiy omili, insonning bilim va qobiliyatları, iqtisodiy o'sishning ko'p omilli nazariyasi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sen Farmoni // www.lex.uz (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-sen)

³ Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2010. –B.199.

⁴ Kapital: <https://ru.wikipedia.org/wiki/Kapital#>

⁵ Борисов А.Б. Большой экономический словарь. -Москва.: Книжный мир, 2003. –C.895.

⁶ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/capital-uz/>

insonga qilingan investitsiya, ya’ni inson kapitalining jamg‘arilishidir”.⁷

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “kapital (lotincha capitalis – bosh, asosiy) – o‘zini o‘zi ko‘paytirish uchun foydalaniladigan, o‘z egasiga daromad, foyda keltiradigan boylik, kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ahamiyatga molik narsa”,⁸ sifatida ta’riflangan. Shuningdek, klassik iqtisodiyot nazariyada “kapital” tushunchasi ikki xil qaraladi. Ya’ni, “ishlab chiqarish omillariga egalik huquqi va ulardan foydalanishdan tegishli daromad olish huquqi”⁹ sifatida. Boshqacha aytganda, kapital bu xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimini tafsiflovchi toifadir.

S.Fisher fikricha, “kapital ma’lum vaqt davomida daromad keltira oladigan barcha narsadir”¹⁰. Shuningdek, “kapital bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish vositalarini ham ishchi kuchini ham o‘z ichiga oladi”¹¹. Shu bilan birga, Dj.Mill ta’kidlashicha, “insonning o‘zi kapital emasligi, biroq uning faqat vosita vazifasini bajaradigan va faqat mehnat orqali amalga oshiriladigan orttirilgan qobilyatlarini har qanday sharoitda ham “kapital” deb tasniflash mumkin”¹².

J.Kentrik fikricha, “inson kapitali birinchidan, ma’lum bir davr ichida ma’lum bir mahsulotni yaratish qobiliyati, ikkinchidan, daromad, shu jumladan, daromadning bozordan tashqari shakllaridir”¹³. Xolbuki, inson kapitali ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy tushuncha sifatida “shaxsning aqliy mehnati va yuksak innovatsion tafakkuri, uning turmush darajasi, kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqeい va o‘rnini belgilab beruvchi omildir”¹⁴. Vaholanki, inson kapitalining mohiyati ba’zi iqtisodchilar tomonidan “hamma egallagan bilim, ko‘nikma va motivatsiya zahirasi” sifatida talqin etiladi. Aslida, bu kapital sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki u kelajakdagi daromad manbai bo‘lib, insonga xos va uning ajralmas qismidir. Ya’ni, “insonning ta’lim olishi va uning mehnat qobiliyatini oshirish kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga sarmoya kiritish natijasida daromad olish qobiliyati”¹⁵.

Xo‘sh inson kapitali tushunchasi qachon va qanday paydo bo‘lgan?

Inson kapitali tushunchasi jahon falsafiy keyinroq iqtisodiy tafakkurining tabiiy natijasidir. Unga sabab XX asrning 60-yillari boshlariga qadar “ishchi kuchini shakllantirish muammosi iqtisodiy fan manfaatlari chegarasida”¹⁶ olib borilganligidir.

⁷ Akramova Sh.G. O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish: Diss.ya avtoreferati iqt.f.b.f.d. (PhD). – Toshkent, 2019. –B.14.

⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2001. –B.316.

⁹ Karpenko YE.Z. Sushnostnaya opredelennost kategorii «chelovecheskiy kapital» // Regionalniye problemi preobrazovaniya ekonomiki. 2012. №20, -S.315-322.

¹⁰ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. – М.: Дело ЛТД, 1995. – С.64.

¹¹ O‘sha joyda.

¹² Mill Dj.S. Principis of Political Economy with some of their Application to Social Philosophy. – London, 1857. http://az/lib/ru/m/millx_d_s/text_1848_principles_of_political_economy-1.shtml

¹³ Дятлов С.А. Основы теории человеческого капитала. – СПб.: СПб УЭФ, 2005. –C.98.

¹⁴ Usmonov B.SH., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli Risola. – Samarqand: SamDU, 2015. –B.14.

¹⁵ Zulluyev A.M., Primov E.B. Chelovecheskiy kapital v sovremennom oshestve // Territoriya nauki, 2016. №6, -S.70.

¹⁶ Samorodov YE.M. Chelovecheskiy kapital: osobennosti funksionirovaniya, nakopleniya, ispolzovaniya. – SPb.: Info-

Bu esa mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida insonning yetakchi rolini e'tirof etish bilan bog'liq hisoblanadi.

Darhaqiqat, sanoat revolyutsiyasi davriga qadar mehnatkash insonga hamisha "ish kuchi" sifatida qarab kelingan. XX asr ikkinchi yarmida uning ma'nosiga "mehnat resursi" va "mehnat salohiyati", "inson omili" tushunchalari qo'shildi. Keyinchalik esa "inson kapitali" tushunchasi ham paydo bo'lgan. Demak, inson kapitali "ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish vositalari va ularni harakatlantiruvchi kuch mehnatkash insonning ijtimoiy maqomida yuz bergan o'zgarishlarni"¹⁷ ham ifoda etadi.

Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish muammosi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida chuqr ildizlarga ega. Ayniqsa, inson o'zini anglay boshlaganidan to umrining oxirigacha "Nega dunyoga keldim va yashashdan maqsadim nima?", "hayotda nimalar qildim?", "nimalarga erishdim?", "nimalarga erisholmadim?", "men jamiyatga nima berdim?", "avlodlarimga nimani meros qoldirdim?" degan savollarga javob izlaydi. Mazkur savollarga o'z hayotidan mammun, doimo o'qigan, izlangan, tinmay mehnat qilgan va o'z bilim, ko'nikma va mahoratini muttasil oshirib borgan kishilargina javob topa olgan. Chunki, bunday kishilarda mislsiz va beba ho boylik - bilim, ilm, tajriba, ko'nikma va mahorat, voqe-a-hodisalarga mantiqiy yondashuv mavjud. Ularning qiymati hech bir zamonda pul bilan o'lchanmagan, bozorda sotilmagan va qancha sarf etilmasin kamaymaydigan boylikdir.

Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy munosabatlar hamda ishlab chiqarish jarayonlarning markazida turuvchi inson faktorini ifodalay boshlagan. "|Zamonaviy ilmiy-texnika inqilobi, informatsion texnologiyalarning keng yoyilishi, dunyodagi iqtisodiy vaziyat va modellarning (postmodern, postindustrial va axborotlashgan jamiyat modellari) o'zgarishi"¹⁸ inson kapitali tushunchasining ma'nolarini o'zgartirdi.

XX asrda bu tushuncha "inson kapitali" atamasi bilan yana kun tartibiga chiqdi. Bunga bir tomondan, asrning so'ngida insoniyatning axborotlashgan jamiyatga, axborot va yangi innovatsion texnologiyalar davriga qadam qo'yishi bilimli va malakali inson kuchiga bo'lgan talabni mislsiz ravishda yuksaltirdi. Ikkinci tomondan, "mamlakatlar va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'rtasida davom etayotgan raqobat o'z-o'zidan sifatli inson kapitalini yaratish musobaqasiga aylandi"¹⁹. Chunki, oxir-oqibatda har qanday iqtisodiy, ilmiy, texnologik va shu kabi mo'jizalarni va "sakrashlar"ni faqatgina o'qimishli, bilimli, izlanuvchan, tashabbuskor va fidokor kishilarning armiyasi – innovatsion inson kapitali ishtirokida va yordamida amalgalashtirilishi mumkin.

da, 2008. –S.14.

¹⁷ Xalmatova M., Safayeva S. O'zbekiston: inson omili va aholini ijtimoiy himoyalash. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000. –B.5.

¹⁸ Великая Е.Г. Экономическая категория «человеческий капитал» // Экономическая категория, 2013. №48 (237), -С.32.

¹⁹ Қаранг: Абдурахманов К.Х., Зокиров Н.К., Шакаров З.Г. Управление человеческим капиталом в условиях цифровизации экономики Республики Узбекистан // Лидерство и менеджмент, 2022. Том 9. №1, -С.219-232.

oshirish mumkin.

Inson kapitali tushunchasi birinchi marta 1958 yilda amerikalik olim Djeykob Minserning “Inson kapitaliga investitsiyalar va shaxsiy daromadlarni taqsimlash”²⁰ nomli maqolasida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik 1961 yilda Teodor Shuls²¹, 1964 yilda esa Garri Bekker²²lar tomonidan inson kapitali konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Darhaqiqat, 1961 yilda Teodor Shuls va 1964 yildan boshlab Garri Bekker inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini asoslab, inson xatti-harakatlariga iqtisodiy yondashuvni shakllantirgan holda ushbu g‘oyani ishlab chiqdi. Teodor Shuls (1979 yilda) va Garri Bekkerlar (1992 yilda) Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga inson kapitali nazariyasining asoslarini yaratgani uchun sazovar bo‘lishgan.

Teodor Shuls “Talim kapitalining shakllanishi” (1960) va “Inson kapitaliga investitsiyalar” (1961) asarlarida inson kapitalining birinchi nazariy modelini beradi. Ushbu asarlar esa bugungi kunda iqtisodiyot fanining klassik nazariyasi sifatida qo‘llaniladi. Shuningdek, 1963 yilda “Ta’limning iqtisodiy qiymati” nomli inson kapitali nazariyasiga oid darslik nashr etildi. Bu kabi ilmiy nashrlar inson kapitali mavzusi bo‘yicha turli tadqiqotlarning paydo bo‘lishiga turtki berdi.

Inson kapitali nazariyasi institutsional nazariya, neoklassik nazariya, neokeynschilik kabi iqtisodiy nazariyalarining yutuqlariga asoslanadi. Jumladan, ushbu nazariya Uilyam Petti, Karl Marks, Adam Smit, Djon Styuart Mill, Teodor Vitsteyn, Genri Sidjvik, Ernst Engel, Uilyam Farr, Alfred Marshall, Geynrik Rosher kabi mashhur iqtisodchilarning asarlarida tarixiy asoslariga ega. Darhaqiqat, inson kapitali g‘oyasi dastlab Uilyam Petti tomonidan “Siyosiy arifmetika”da shakllantirilgan bo‘lsa²³, keyinchalik Adam Smidning “Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari bo‘yicha tadqiqot”²⁴ va Alfred Marshallning “Iqtisodiy fan prinsiplar”²⁵ kabi asarlarda ochib berilgan. Ushbu olimlar aynan inson kapitali to‘grisida fikr yuritmagan bo‘lsa ham uning elementlarini rivojlantirishga, inson kapitali nazariyasining shakllanishiga ta’sir etgan. Xususan, U.Pitter “davlat statistika xizmatini yaratish, milliy boylik va milliy daromadni hisoblash zarurligi”²⁶ni isbotlagan. Bu esa o‘scha davr uchun ko‘rsatkichlarni hisoblash bilan birga zamonaviy milliy hisoblar tizimini yaratishga asos bo‘ldi. Ayniqsa olim umrining oxirigacha asosan aholi soni, uning o‘sishi, taqsimlanishi, bandlik masalalari bilan shug‘ullandi. Bu masalalar esa aynan inson kapitalini rivojlantirishga sabab bo‘ladigan omillar hisoblanadi.

²⁰ Mincer J. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution // Journal of Political Economy, vol.66, No4, august, 1958. –Pp.281-202.

²¹ Shultz T. Human Capital in International Encyclopedia of the Social Sciences. – N.Y., 1968. Vol.6.

²² Becker G. Human Capital. – Columbia University Press, 1964.

²³ Petty, William. Essays in Political Arithmetick («Эссе о политической арифметике»). 1683.

²⁴ Adam Smith. An inquiry into the Nature and Causes of Wealth of Nations. – London: William Strahan and Thomas Cadell, 1776; Адам Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2020. – 1056 с.

²⁵ Alfred Marshall. Principles of Economics. – London, 1890.; Маршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. – 594 с.

²⁶ Petty, William. Essays in Political Arithmetick («Эссе о политической арифметике»). 1683.

Albatta, yuqoridagi olimlardan Adam Smidning “Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari bo‘yicha tadqiqot” asarini alohida e’tirof etish kerak. Chunki ushbu asar iqtisodiy nazariyalarga sezilarli ta’sir o’tkazgan, ayniqsa klassik siyosiy iqtisodning asosiy asarlaridan hisoblanadi. Ushbu asar 5 ta kitobdan iborat bo‘lib, ularda “mehnat unumdorligining oshishi sabablari, uning mahsuloti aholi tabaqalari orasida tabiiy ravishda taqsimlanishi; kapitalning tabiatini, uning to‘planishi va qo‘llanilishi; turli xalqlar o‘rtasida farovonlikni rivojlantirish; davlatning daromadlari to‘g‘risida”²⁷ so‘z yuritilgan. Darhaqiqat, olimning ushbu asari davlatning iqtisodiyotdagi o‘rnini belgilashda klassik nazariya sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki olim ta’kidlashicha, “davlat inson hayoti va mulki xavfsizligini ta’minlashi, nizolarni hal etishi, qoidalarga rioya etilishini kafolatlashi shart”.²⁸ Shu jumladan, yangi O‘zbekistonda “davlat - inson uchun”²⁹ tamoyili amalga joriy etildi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida aytish mumkinki, inson kapitalini shakllantirish nazariyasi aynan XX asrning 50-60 yillarda ilmiy tahlil sifatida shatr-sharoitlar vujudga keldi.

Inson kapitali nazariyasini yaratishga turtki bo‘lib, “klassik o‘sish omillari asosidagi hisob-kitoblardan yuqori bo‘lgan dunyoning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotining o‘sishi haqidagi statistik ma’lumotlar bo‘ldi”.³⁰ Zero, inson kapitalini jamiyat, davlat va iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ishlab chiqarish hamda ijtimoiy omili sifatida shakllanishi zamонави sharoitda rivojlanishning real jarayonlarini tahlil qilishga olib keldi. Shu sababli T.Shuls va G. Bekkerlar “inson kapitali” tushunchasini insonning qobiliyatini, uning iste’dodini, bilimini, egallagan malakasini, tug‘ma qobiliyatini iqtisodiy baholash sifatida ta’riflashgan.³¹

Xo‘sh, inson kapitali nima? Uning o‘ziga xos xususiyatlari qanday? Inson kapitaliga oid qanday yondashuvlar mavjud? Dastlab, inson kapitali faqat insonning mehnat qobiliyatini oshiradigan investitsiyalar yig‘indisi, ya’ni ta’lim va kasbiy mahorat tushunilgan.

Tadqiqoti olim T.Shuls fikricha, “inson farovon yashashi, kambag‘allikdan qutilishi yer, texnika va insonlarning sa’y harakatidan ko‘ra ko‘proq bilimga bog‘liq. Insonlarning barcha qobiliyatları tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi: har bir odam uning tug‘ma qibiliyatlarini belgilovchi individual genlar kompleksi bilan tug‘iladi. Inson ortirilgan sifatlari munosib sarflar bilan kuchaytirilishi mumkin, biz buni inson kapitali deb ataymiz”.³² Shuni ta’kidlash kerakki, olim inson kapitalini kelajakdagি daromadlar manbaini yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgan hamma narsani tushunadi.

²⁷ Adam Smith. An inquiry into the Nature and Causes of Wealth of Nations. – London: William Strahan and Thomas Cadell, 1776.

²⁸ Адам Смит. Исследование о природе и причинах богаства народов. – М.: ЭКСМО, 2020. – С.106.

²⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “О‘zbekiston”, 2021. -Б.67.

³⁰ <https://ru.wikipedia.org/wiki>

³¹ Shultz T. Human Capital in International Encyclopedia of the Social Sciences. – N.Y., 1968. Vol.6.; Becker G. Human Capital. – Columbia University Press, 1964.

³² Shultz T. Human Capital in the International Encyclopedia of the Social Sciences. – N.Y., 1968. Vol.6.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, insonda mujassamlashtirilgan “inson kapitali uning bilimi, bilimdonligi, mahorati, tartibliligi, axloqliligi va yaratuvchanlik faoliyati har qanday davlatning milliy boyligini asosidir”.³³ Darhaqiqat, bugungi kunda davlat yoki mamlakatlarning taraqqiyotiga, rivojlanishga erishishi uchun jamiyatdagi insonlarni ta’lim olishga, bilimli, kasb-hunarli bo‘lishiga, aholining bandligiga hamda ularning farovon hayot kechirishlariga e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // www.lex.uz (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. -Б.67.
3. Centre research civil society of University name Johns Hopkins (USA), Institute of Central Asia, European Union Institute for Security Studies (France), Institute of Academy for study modern international relations Europe and Asia (China), Osaka University (Japan), Civil Society Fund Friedrich Ebert, Berlin Civil Society Center (Germany).
4. Petty, William. Essays in Political Arithmetick («Эссе о политической арифметике»). 1683.
5. Adam Smith. An inquiry into the Nature and Causes of Wealth of Nations. – London: William Strahan and Thomas Cadell, 1776; Адам Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2020. – 1056 с.
6. Alfred Marshall. Principles of Economics. – London, 1890.; Маршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. – 594 с.
7. G‘affarova G., Jalalova G. Inson kapitalini rivojlantirish davrida kreativlik zaruriyati // Scientife Bulleettin of NamSU - Nauchniy vestnik - NamDU ilmiy axborotnomasi, 2022. 3-son, -B.207.
8. Shultz T. Human Capital in International Encyclopedia of the Social Sciences. – N.Y., 1968. Vol.6.; Becker G. Human Capital. – Columbia University Press, 1964.
9. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

³³ G‘affarova G., Jalalova G. Inson kapitalini rivojlantirish davrida kreativlik zaruriyati // Scientife Bulleettin of NamSU - Nauchniy vestnik - NamDU ilmiy axborotnomasi, 2022. 3-son, -B.207.